



REFLECTIONS ON THE "SOLUTION" TO THE ISSUE OF THE ATTITUDE TOWARDS WOMEN IN THE SOVIET PERIOD

Nilufar D. Djuraeva

Uzbek State University of World Languages
Head of the Department of History of Uzbekistan,
Candidate of Historical Sciences, Professor
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17548624>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2025
Accepted: 30th October 2025
Online: 31st October 2025

KEYWORDS

Women's organizations, Soviet period, Communist Party, women, socialist society, "liberation," cheap labor, campaign.

ABSTRACT

The article scientifically analyzes the fact that the Soviets in the 20th century based their approach to women's issues on fundamental revolutionary changes, that the Soviet authorities, striving to implement the colonial strategy, carried out a political and economic "liberation" movement in order to widely involve women in social production, but this process was incompatible with local culture, national and religious traditions, patriarchal values, and social stereotypes. It is known that, despite this, due to feelings of patriotism, courage, and initiative in the psyche of Uzbek women, their place in society, rights, and social activity changed significantly. During the Soviet period, organizations such as the Women's Department played an important role in increasing women's political literacy, attracting them to communist ideology, and implementing a policy of equality. However, these organizations operated mainly under party control and ideological influence. In the Soviet era, the solution to the women's issue was achieved not only by creating legal rights for them, but also by widely involving them in economic and political processes. However, women's social activism was supposed to serve the construction of a socialist society.

РАЗМЫШЛЕНИЯ О "РЕШЕНИИ" ВОПРОСА ОТНОШЕНИЯ К ЖЕНЩИНАМ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД

Нилуфар Далибаевна Джураева

Узбекский государственный университет мировых языков
Заведующая кафедрой истории Узбекистана,
Кандидат исторических наук, профессор
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17548624>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2025
Accepted: 30th October 2025
Online: 31st October 2025

ABSTRACT

В статье научно анализируется тот факт, что в XX веке советская власть основывала свой подход



KEYWORDS

Женские организации, советский период, Коммунистическая партия, женщины, социалистическое общество, «освобождение», дешёвая рабочая сила, кампания.

к женскому вопросу на фундаментальных революционных изменениях, что советская власть, стремясь реализовать колониальную стратегию, проводила политическое и экономическое «освободительное» движение с целью широкого вовлечения женщин в общественное производство, но этот процесс был несовместим с местной культурой, национальными и религиозными традициями, патриархальными ценностями и социальными стереотипами. Известно, что, несмотря на это, благодаря чувствам патриотизма, смелости и инициативы, заложенным в психике узбекских женщин, их место в обществе, права и социальная активность существенно изменились. В советский период такие организации, как Женотдел, сыграли важную роль в повышении политической грамотности женщин, привлечении их к коммунистической идеологии и реализации политики равноправия. Однако эти организации действовали преимущественно под контролем партии и под ее идеологическим влиянием. В советское время решение женского вопроса достигалось не только путем создания для них юридических прав, но и путем широкого вовлечения в экономические и политические процессы. Однако женская общественная активность должна была служить построению социалистического общества.

SOVET DAVRIDA XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT MASALASINING “HAL ETILISHI”GA DOIR MULOHAZALAR

Nilufar Djurayeva Dalibayevna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O‘zbekiston tarixi kafedrasini mudiri,

tarix fanlari nomzodi, professor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17548624>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2025

Accepted: 30th October 2025

Online: 31st October 2025

KEYWORDS

ABSTRACT

Maqolada XX asrda sovetlar tomonidan ayollar mavzusi tubdan inqilobiy o‘zgarishlarga asoslanganligi, sovet hokimiyati mustamlakachilik



Xotin-qizlar tashkilotlari, sovet davri, kommunistik partiya, ayollar, sosialistik jamiyat, "ozod qilish", arzon ishchi kuchi, kompaniya.

strategiyasini amalga oshirishga intilib, xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga keng jalb etish maqsadida siyosiy va iqtisodiy jihatdan "ozod qilish" harakatini olib borganligi, biroq ushbu jarayon mahalliy madaniyat, milliy va diniy an'analar, patriarxal qadriyatlar va ijtimoiy stereotiplar bilan murosasiz kechganligi ilmiy tahlil etilgan. Ma'lumki, shunday bo'lsa-da, o'zbek xotin-qizlari ruhiyatidagi vatanparvarlik, shijoat, tashabbuskorlik kabi tuyg'ular tufayli ularning jamiyatdagi o'рни, huquqlari va ijtimoiy faolligi sezilarli darajada o'zgardi. Sovet davrida xotin-qizlar bo'limi kabi tashkilotlar ayollarning siyosiy savodxonligini oshirish, ularni kommunistik ideologiyaga jalb qilish va tenghuquqlilik siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynadi. Lekin bu tashkilotlar asosan partiya nazorati va mafkuraviy ta'sir ostida faoliyat yuritgan. Sovet davrida xotin-qizlar masalasining hal etilishi nafaqat ularga qonuniy huquqlarni yaratish, balki ularni iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga keng jalb qilish orqali amalga oshirildi. Biroq, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi sosialistik jamiyat qurish uchun xizmat qilishi kerak edi.

Dolzarbligi:

Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi, ming yillik tarixga ega bo'lgan mintaqa sifatida, ayollar masalalarida murakkab dinamikaga ega bo'lgan. Qadimiy davrlardan boshlab, bu hududda ayollar oilaviy va ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutgan, ammo ko'pincha patriarxal tuzumlar va diniy normalar ta'sirida cheklangan huquqlarga ega bo'lgan. XX asrda, sovetlar hukmronligi davrida (1917-1991 yillar), Markaziy Osiyoda ayollar masalalari tubdan o'zgardi. Sovet siyosati ayollarni o'zining siyosiy va iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, "ozod qilish"ni maqsad qilgan bo'lsa-da, bu jarayon mahalliy madaniyat va milliy an'analar, shuningdek, ayollarning ijtimoiy majburiyatlari va patriarxal stereotiplar bilan ziddiyatli tarzda kechdi.

Sovet davri xotin-qizlarga munosabat masalasining hal etilishi zamonaviy jamiyat uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ikki asosiy jihat orqali uning dolzarbligi belgilanadi. Birinchidan, sovet siyosati kommunistik mafkura manfaatlarini asosida bo'lsa-da, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ularni jamiyatning turli sohalarida faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan edi. Bu o'z navbatida gender tengligi kontsepsiyasining shakllanishi va ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish uchun muhim tarixiy asos yaratdi. Xotin-qizlar kommunistik mafkuraning hujumkor harakati natijasida ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilib, ularning ijtimoiy faolligi oshdi, jamiyat rivojida o'z o'rinlari borligini anglay boshladi. Ikkinchidan, sovet davrida erishilgan yutuqlar, ya'ni ayollarning tenghuquqliligi qonunlarda mustahkamlab qo'yilganligi,



amalda esa ayollar ijtimoiy faollik oqibatida milliy, an'anaviy turmush tarzidan begonlashdi. Mustabid tuzum manfaati mahalliy xotin-qizlarning ishlab chiqarishdagi imkoniyatini hisobga olmadi, ular og'ir jismoniy mehnat talab etadigan ishlab chiqarish turlariga jalb etildi. Xalq xo'jaligida 50% ni tashkil qilgan ayollar asosan, hayotning hamma jabhalarida erkak va ayolning tengligi uchun harakat oqibatida og'ir jismoniy mehnat talab qiladigan sohalarga jalb qilinib, mehnatga haq esa 25-30% kam to'lanardi. Bu esa mehnatni muhofaza qilishning norma va qonunlariga zid edi. Xotin-qizlar ilm olishda erkaklar bilan amalda teng huquqqa ega bo'lsalarda, ulardan mutaxassislar tayyorlashga e'tibor sust edi, ya'ni oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida mahalliy xotin-qizlardan mutaxassis tayyorlash ishiga kam e'tibor berildi. Xotin-qizlarning rahbarlik qobiliyatlariga ishonchsizlik ularning o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qila olishiga to'siq bo'lgan. Xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilishda miqdor ko'rsatkichlarga intilishi salbiy ijtimoiy oqibatlarga ham olib keldi. Sovet davri ayollarning organizmidagi o'ziga xos xususiyatlarni, yosh avlod tarbiyasidagi rolini e'tiborga olmadi. O'z-o'zini qayta ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan faoliyat kamsitildi. Ayollarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etishni xotin-qizlarning jamiyatda faollashuvining yagona yo'li deb e'tirof etildi. Bu esa hozirgi jamiyatda ayollarning huquqlari va imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun tarixiy tajribani chuqur o'rganish va undan saboq olish zaruratini ko'rsatadi. Bugungi kunda xotin-qizlarning huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda, ularning himoyasi va gender tengligini ta'minlash global va milliy siyosatlarda ustuvor vazifa hisoblanadi. Sobiq sovet mamlakatlarida, jumladan O'zbekistonda ham, sovet davri siyosatining ijobiy va salbiy tajribalari asosida yangi siyosiy, huquqiy va ijtimoiy mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Bu jarayon ayollarning inson huquqlari hamda jamiyatdagi o'rinini yanada mustahkamlash, iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan. Shu bois, sovet davrining xotin-qizlarga munosabatini o'rganish va bu boradagi tarixiy tajribalar uning hozirgi jamiyatdagi gender siyosati va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini anglashda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu mavzuni chuqur o'rganish va tahlil qilish bugungi kunda uning tarixiy ildizlarini tushunish va zamonaviy siyosatga samarali yondashuvlar ishlab chiqish uchun dolzarb bo'lib, zamonaviy jamiyatdagi gender tengligi, ayollar huquqlari himoyasi va ijtimoiy siyosatni shakllantirishda asosiy ilmiy va amaliy pozitsiyani egallaydi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy– mantiqiy tahlil, ketma–ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda XX asrda sovet hokimiyati tomonidan olib borilgan xotin-qizlarga munosabat masalasidagi davlat siyosatining mohiyati va uning ziddiyatli mohiyati yoritib berilgan.

Tarixchi olimlar R.Aminova[1], D.Alimova[2]lar tomonidan xotin-qizlar muammosi keng qamrovli manbalar va arxiv materiallarini tahlil qilish asosida tanqidiy ravishda o'rganilgan. O'rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning tutgan o'rni tarixshunoslik nuqtai nazaridan yoritib berilgan. Shuningdek, olimlar xotin-qizlar masalasida – faqat "Hujum" harakati yangicha asosda baholansa-da, uning tarixi va "ayollar kooperatsiyasi" masalasi, xotin-qizlarning ahvoliga qishloq xo'jaligini



jamoalashtirish siyosatining ta'siri, 1925-29-yillardagi yer-suv islohotining xotin-qizlar emansipatsiyasidagi roli, ushbu yo'nalishdagi jamoat tashkilotlarining faoliyati, ijtimoiy ishlab chiqarishga xotin-qizlarni jalb qilish, yangi tipdagi xotin-qizlarning shakllanishi bilan madaniy rivojlanishning o'zaro aloqadorligi kabi masalalar milliy mafkura asosida o'rganilishi dolzarbligicha qolganligini ta'kidlaydi[3]. Olimaning bir qator ilmiy maqolalarida oila va jamiyatda ayol mavqei bilan bog'liq an'anaviy, ijtimoiy qarashlar hamda ularning tarixiy ildizlari ilk bor ilmiy asosda yoritib berildi[4].

Mustaqillikning dastlabki yillarida ayollarning bandlik muammosi va uni bozor munosabatlariga o'tish sharoitida hal etish yo'llari, xotin-qizlar o'rtasida tadbirkorlar qatlamini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muammolari o'rganildi, ayollarning ishlab chiqarishdagi o'rni, demografik holat, ayolning oila va jamiyatdagi mavqei, respublikadagi ekologik holat va uning ayollar salomatligiga ta'siri masalalari tadqiq etildi[5].

90-yillarning ikkinchi yarmi va 2000-yillarning boshlarida yangi tarixiy tafakkur ruhida, yangicha yondoshuv va metodologiya asosida tarix fani va ijtimoiy fanlarning ya'ni, iqtisod, falsafa va huquq singari deyarli hamma sohalarida ayollar ahvolini o'rganishga e'tibor qaratilib, xotin-qizlar masalasiga oid bir qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari ham himoya qilingan[6]. Ushbu dissertatsiyalarda tadqiq etilayotgan davrdagi sovet hokimiyatining xotin-qizlarga munosabatining mustamlakachilik mohiyati milliy istiqloq g'oyasi asosida ilmiy tarzda, xolis yoritib berilgan[7]. Shuningdek, mustaqil O'zbekistonda ayollar masalasini hal etishning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ma'rifiy-tashkiliy, o'ziga xos milliy jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, bu tadqiqotlarda xotin-qizlar tashkilotlarining ayollar ijtimoiy faolligini oshirishdagi o'rni va roli o'z ifodasini topmagan.

Tadqiqot natijalari:

Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi, Ipak yo'li markazi sifatida, turli madaniyatlarning kesishmasida shakllangan. Bu yerda ayollar oilada, xo'jalikda va hatto siyosiy hayotda faol bo'lishgan, ammo sharq xalqlari va islomiy turmush tarzi an'analari doirasida ko'pincha erkaklar hukmronligi ta'sirida bo'lishgan. Aynan, sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ayollar paranji-chachvonda yurishgan, ko'p xotinlilik va qizlarning erta turmushga berilishi kabi odatlar keng tarqalgan edi. Bu esa kommunistik partiya rahnamoligidagi sovetlar siyosatida ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan cheklanishi va kamsitilishi deb hisoblagan. Shuning uchun ham, sovet hokimiyati tomonidan xotin-qizlar safidan arzon ishchi kuchini shakllantirish maqsadida oilaviy an'analarni inkor qilish orqali ayollarni "ozod" qilish uchun harakat qilingan. Ushbu ayollar emansipatsiyasi siyosatining mohiyatida xotin-qizlarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotda faol ishtiroki muhim mavzu hisoblangan. Sovet hukumati tomonidan "ayollarni ozod qilish" siyosati yuzasidan qator ijtimoiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, an'anaviy jamiyatdagi patriarxal qarashlarni, diniy ta'sirlarni zaiflashtirish va ayollarning jamiyatdagi o'rnini oshirishga qaratilgan "Hujum" harakati misolida inqilobiy o'zgarishlar amalga oshirildi.

1917-yildagi Oktyabr inqilobidan keyin sovetlar o'z maqsad-manfaatlari nuqtai nazaridan Markaziy Osiyoda ayollar huquqlarini himoya qilishga kirishdi. Bolsheviklar



“ayollarni ozod qilish”ni nafaqat ijtimoiy-boshqaruvdagi tenglik maqsadida, balki iqtisodiy va siyosiy sohalarida yangi ishchi kuchini yaratish uchun qaratilgan siyosat sifatida ko‘rishdi. Zhenotdel (Xotin-qizlar bo‘limi) tashkiloti ayollarni ozod qilishda markaziy rol o‘ynadi, ularni ta‘lim, mehnat va siyosiy faoliyatga jalb qilishni targ‘ib qildi. Biroq, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish markaziy qonunlar va siyosat bilan bir qatorda mintaqaning o‘ziga xos diniy, madaniy sharoitlariga zid ravishda ko‘p jihatdan majburiy tarzda olib borildi. 1920-yillarning oxirlarida boshlangan “Hujum” kampaniyasida ayollarni paranjidan “ozod qilish” va boshqa “eski” an‘anaviy urf-odatlardan voz kechishga majburlashdi. Bu siyosat huquqiy tenglik, ta‘lim, kasbiy o‘shish va sog‘liqni saqlash sohalarini qamrab olgan bo‘lsa-da, bu jarayon ko‘pincha an‘anaviy jamiyat va diniy qadriyatlar bilan qarama-qarshilikda kechdi, natijada majburiy “ozodlik” siyosati ko‘plab ijtimoiy ziddiyatlarga sabab bo‘ldi.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sovet davrida Markaziy Osiyoda ayollar emansipatsiyasi quyidagi asosiy bosqichlardan o‘tgan:

Boshlang‘ich bosqich (1917-1920-yillar) – oktyabr inqilobidan so‘ng sovet hokimiyati ayollarni patriarxal jamiyatdan chiqarib, ularni “ozod qilish”ni davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgiladi. Markaziy Osiyoda bu davrda ayollarning ta‘lim olish imkoniyatlari yaratilib, an‘anaviy patriarxal va diniy cheklolarga qarshi kurash asosida ayollarni oila muhitidan, uy-ro‘zg‘or yumushlaridan chetlashtirish boshlandi. Mustabid tuzumning mas‘ul xodimlari dastlabki yillarda ayollar kuchidan keng foydalanish masalasiga ehtiyotkorlik bilan yondoshganlar. Ayollarni ijtimoiy muhofaza qilish sifatida ishlab chiqarishning zararli, murakkab sohalariga ularni jalb qilish ta‘qiqqlangan. Lekin, 20-yillarning oxiriga kelganda bu yondoshuv keskin tarzda o‘zgarib, ayollarni erkaklar bilan har jabhada “tenglashtirish” siyosati ustunlik qila boshlagan. Shundan so‘ng, xotin-qizlar jamoatchilik, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi ishlarga tobora kengroq jalb etila boshlandi. Buning sababi sovetlar hukumatining moddiy-iqtisodiy bazasini mustahkamlash zaruriyati va bu jarayonda xotin-qizlar mehnatiga ehtiyoj bilan bog‘liq edi. Shu maqsadda 1925-yil 15-fevralda SSSR MIQning “Sovet Sharqi mehnatkash xotin-qizlarining huquqlari va ularni oilaviy-maishiy, iqtisodiy sohalaridagi tazyiqlarning barcha ko‘rinishlariga qarshi kurash haqida” murojaatnomasi e‘lon qilindi[8]. Natijada, ayollarning ishchi kuchidagi ulushi keskin oshgan: 1922 yilda 22% bo‘lgan bo‘lsa, 1932 yilda 32% ga yetgan[9].

Yangi ijtimoiy rol va ta‘lim bosqichi (1920-1930-yillar) – ayollarni ishlab chiqarish jarayoniga keng jalb qilish, ularni iqtisodiy mustaqillikka erishtirishga intilish boshlandi. Sovet hukumatining eng muhim tashabbuslaridan biri ayollarning ma‘rifiyati va ta‘limini kengaytirish bo‘ldi. Ayniqsa, xotin-qizlarni asosiy va arzon ishchi kuchiga aylantirish maqsadida ularni maktablar va savodsizlikni tugatish kurslariga borishini rag‘batlantirish, an‘anaviy paranjidan voz kechishga qaratilgan tadbirlar olib borildi. Bu bilan esa ayollarga yangi rollar yuklandi, ammo ularni aslida haqiqiy “ozod qilish” uchun emas, balki sovet davlatiga sodiq va kommunistik partiya siyosatiga xayrixoh fuqarolar sifatida tarbiyalashga intilish kuchli bo‘ldi. Bu siyosat an‘anaviy oilaviy va gender munosabatlarga sovet ideologiyasining kuchli ta‘sirini ko‘rsatdi. Qishloq joylarda qizlarning ta‘lim olishi kengaytirilib, ayollar ish joylari yaratila boshlandi. Bu davrda



ayollarning arzon ishchi kuchi sifatidagi roldan kelib chiqib, oilaviy, ijtimoiy huquqlari qonun bilan mustahkamlandi. Markaziy Osiyoda ayollar uchun ta'lim tizimi rivojlantirildi: maktablar va universitetlar ochildi, savodsizlikka qarshi kurash olib borildi. Natijada 1927 yilda oliy ta'limda ayollar ulushi 28% bo'lsa, 1970 yilda 49% ga ko'tarilgan[10].

Shuningdek, xotin-qizlarga munosabat masalasidagi keskin burilish O'zbekiston Kompartiyasining 1- s'yezdi (1925 yil, fevral) qabul qilgan "Xotin-qizlar o'rtasida ishlash to'g'risida"gi rezolyusiyadan so'ng boshlandi. S'yezdda qatnashgan jami 389 nafar delegatning 25 nafari ayol, shundan 8 nafari o'zbek ayol delegatlari edi[11]. Rezolyusiyada xotin-qizlar o'rtasidagi ishlarga partiyaviy rahbarlik qilishning aniq tadbirlari, ya'ni xotin-qizlarni partiya, sovet, kasaba uyushmalari va kooperativ qurilishiga, ishlab chiqarish hamda vakillalar yig'ilishlariga jalb etish, mahalliy millat xotin-qizlari o'rtasida madaniy-oqartuv ishlarini rivojlantirish, xotin-qizlar bo'limlarida ko'proq mahalliy millat vakillarining ishiga e'tibor berish zarurligi belgilab berildi. Masalaning qo'yilishidagi yangilik shundan iborat ediki, 1925 yillarda yangi tarkib topgan sovetlar hukumatining moddiy-iqtisodiy bazasini mustahkamlash bosh masala ekanligidan kelib chiqib, mahalliy millat xotin-qizlarini ishlab chiqarish jarayoniga, ya'ni mehnat frontiga jalb etishni kuchaytirishdan iborat edi. 1922 va 1937-yillar oralig'ida 4 million yangi ishchining 82 foizi ayollar edi. Bandlik ayollarning ozodligi uchun imkoniyatni anglatadi, ammo o'z-o'zidan uydan tashqarida ishga ega bo'lish ozodlikni anglatmaydi. Aslida, paydo bo'layotgan byurokratiya davrida bu oilaga oid qonunchilikdagi boshqa o'zgarishlar tufayli tazyiqning kuchayishini anglatardi. Aynan shu paytda, 1930-yilda ayollar bo'limi rasman bekor qilindi[12]. Ya'ni 30-yillarga kelib, "xotin-qizlar masalasining hal bo'lganligi" haqidagi g'ayriilmiy xulosa natijasida xotin-qizlar bo'limi faoliyati VKP(b) MQning 5 yanvardagi qarori bilan tugatildi[13]. Qarorda xotin-qizlar bo'limlarining vazifalari firqa qo'mitasi va uning bo'limlariga o'tganligi ta'kidlanib, maxsus sektorga aylantirildi[13]. Sektorlar zimmasiga sovet hukumati va kommunistik partiya tomonidan "xotin-qizlar masalasining hal bo'lganligi" haqidagi xulosani ilmiy-amaliy jihatdan mustahkamlash vazifasi yuklatildi. 1930 yili Kommunistka va 1934 yili Yangi yo'l jurnallarini nashr etish to'xtatildi. Xotin-qizlar o'rtasida olib boriladigan butun ishlarning mas'uliyati Mehnat va turmushni yaxshilash Komissiyalari zimmasiga o'tdi. Komissiya tarkibida respublika bo'yicha 100 dan ortiq a'zo bo'lib, ular komissiya zimmasidagi katta hajmdagi ishlarni bajarish imkoniyatidan yiroq edi. Shuning uchun komissiyalar 1930 yil may oyida ittifoq respublika, viloyat, shahar va joylardagi ijroiya qo'mitalariga aylantirildi va 1932 yilda o'z vazifasini bajarib bo'lgan organ sifatida tugatildi[14]. Aslida bu jarayonga sabab, sovet hukumati va kommunistik partiyaning xotin-qizlarni "iqtisodiy ozodlikka chiqarish" shiori ostida ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish, ular mehnatidan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish bilan jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylantirib, o'z maqsadiga erishishida hamda ijtimoiy-siyosiy faolligi oshib borgan ayollarning o'z haq-huquqlari uchun kurashib, mustabid tuzum tomonidan o'zlariga nisbatan olib borilayotgan siyosatdan norozilikning kuchayib borishida edi.

Ma'lumki, sovet davrida xotin-qizlarga munosabat masalasidagi davlat siyosati ayollarning ta'lim darajasini va mehnatdagi ishtirokini oshirdi. Biroq, bu jarayon xotin-



qizlarning oiladagi an'anaviy roliga nisbatan hali shakllanib ulgurilmagan mahalliy erkaklarning qarashlari va ayrim diniy ulamolarning qarshiligiga uchradi. Bu yerda taraqqiyparvar ruhoniylar bilan reaksiyon ruhoniylarni farqlash lozim. Masalan, Toshkentda Ko'kaldosh madrasasi minorasidan reaksiyon dindorlar sovetlarning xotin-qizlarni «ochish» siyosatiga qarshi ayollarni o'ldirish va jazolash bilan javob berganlar. Taraqqiyparvar ruhoniylar esa aksincha, xotin-qizlar ozodligi masalasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, qon to'kilishlarning oldini olish va keskin vaziyatlarning yuzaga kelmasligi uchun harakat qilishgan. Ma'lumki, taraqqiyparvar ruhoniylar xotin-qizlar ozodligiga hayrihox bo'lganlar. Masalan, 1926 yilda mulla Foziljon Mahzum ayollar yig'ilishi va qizlar maktabiga salbiy munosabat bildirganida, «Farg'ona» gazetasida mulla O'runboyev Foziljon Mahzumning fikriga qarshi chiqib, qur'onda xotin-qizlar erkaklar bilan teng huquqli ekanligini ta'kidlaydi. Xotin-qizlar ham kuniga 5 vaqt namoz o'qishga, mehmonga borishga, bozorda yurishga, o'qish, ma'lumot olishga haqli ekanliklarini aytadi. Yana bir mulla Zuhridin O'g'lom o'z maqolasida qur'onda xotin-qizlar uchun chodir (paranji) yo'qligini ta'kidlaydi. Qo'qon ruhoniyatining rahnamosi To'raxon Mahsum dindorlarning vazifasi hukumat bilan aholi o'rtasida vositachilik qilishdan iborat deb, ta'kidlagan bo'lsa, Andijon ruhoniylarining yo'lbo'shchisi Shayx Mavluniy ayollarni ozodlikka chiqarishga qaratilgan hukumat tadbirlariga qarshilik ko'rsatmaslikka chaqiradi[15]. Musulmon markaziy diniy idorasi xotin-qizlar bo'limining mudiri Mursali Bibi esa, xotin-qizlarga qarata quyidagicha da'vat qiladi: "Hurmatli dugonalar! Musulmon ayollar o'rtasida islomga ishonch sezilarli darajada susaydi. Dinga ishonmaydigan odamlar o'rtasida bir-biriga hurmat bo'lmaydi"[16]. Da'vatnoma paranji tashlashga qarshilik ko'rsatmaslikka va ayni paytda diniy tarbiyaga e'tibor berishga chaqirish bilan tugaydi. Lekin, komfirqa taraqqiyparvar ruhoniylar tadbirini qo'llab-quvvatlash o'rniga ularga qarshi "Kurashchan xudosizlar" jamiyatini tuzdi. Bu jamiyat ruhoniylarga "sinfiy dushman" sifatida qarab, keskin kurash olib borgan holda, taraqqiyparvar ruhoniylarning xotin-qizlar yuzlarini ochishda jamoatchilik idoralari bilan hamkorlik qilish haqidagi takliflariga e'tibor bermadi.

Majburiy islohotlar va ziddiyatlar (1930-1950-yillar) – sovet hokimiyati an'anaviy qadriyatlar va diniy urf-odatlariga qarshi chiqib, ayollarni jamiyatda faol qatnashishga majburladi. Paranji-chachvonni yechish, oila va nikoh masalalarida ko'p ziddiyatlar yuzaga keldi. 1930-yillarga kelib, ayollar sanoat va qishloq xo'jaligida faol ishtirok etishdi, kollektiv xo'jaliklarda (kolxoz va sovxozlarda) mehnat qildilar. Sovet konstitutsiyasi ayollarga erkaklar bilan teng huquqlar berdi, xususan, saylov huquqi va mulk huquqi shular jumlasidandir. Ayollarni iqtisodiy mustaqillikka erishtirish maqsadida maxsus artellar va kooperativlar tashkil etildi. Sovet davrida ayollar turli sohalarda, jumladan, iqtisodiyot, ta'lim va siyosatda ishtirok etdi, lekin ularning erkinligi va haqiqatda teng huquqli bo'lishi ko'p hollarda siyosiy rejimning muayyan ehtiyojlari bilan cheklangan edi. Sovet rahbarlari ayollarni "surrogat proletariat"[17] deb hisoblagan, chunki mintaqada haqiqiy ishchi sinf kam edi. Sovet siyosatchilari Markaziy Osiyodagi musulmon ayollariga jamiyatda alohida ajratilgan, ekspluatatsiya qilingan va degradatsiyalanganligi sababli "proletariatga o'xshash guruh" sifatida qarashgan. Sovet hukumati ularni an'anaviy tartibdagi "strukturali zaif nuqta" deb hisoblab, inqilobiy



ittifoqchi sifatida ko'rgan, bu esa jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan harakatlari doirasida ayollarni inqilobiy jarayonlarga jalb qilishga urinishlarga olib kelgan.

30-yillardan boshlab sovetlar xotin-qizlarni jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlariga aylantirishga harakat qildi. Shu maqsadda, xotin-qizlarni imkoniyatlarini hisobga olmay, turli musobaqalar tashkil qilindi. 1931 yil sentyabrda «sosialistik qurilish»ni jadallashtirish maqsadida sanoatda band bo'lgan O'zbekiston va Turkmaniston xotin-qizlari o'rtasida "Millionlar shartnomasi" tuzildi. Shartnomaga muvofiq ikkala respublika belgilangan rejani ipakchilik sanoatida 1931 yilda 80%ga, 1932 yilda esa 90%ga yetkazib bajarish va to'qimachilik sanoatida esa 1931 yilda 70%ga, 1932 yilda esa 80%ga yetkazib bajarishi lozim edi. Aksariyat hollarda musobaqa ishtirokchilari bo'lgan "ilg'or" ayollar fabrika-zavodlarda band bo'lgan umumiy xotin-qizlarning juda kam miqdorini tashkil qilar edi. Masalan, Toshkentdagi Fomin nomli fabrikaning 494 xotin-qiz ishchisining atigi 59tasi, 1-sonli non zavodining 140 ta ayol ishchisidan 34tasi musobaqa ishtirokchilari edi. Bunday holatning mavjudligiga xotin-qizlar malakaviy darajasining pastligi va shu bilan birga ular imkoniyatlarining cheklanganligi sabab bo'ldi. Shuningdek, Toshkentdagi "O'rtoq" qandolat fabrikasi, makaron fabrikasi, 51-sonli paxta zavodi bolalar bog'chasi va maydonchalariga ega emas edi. Bu ham xotin-qizlarning ishlab chiqarishda keng ishtirok etishiga imkon bermasdi. Musobaqalar tashkil etish orqali xotin-qizlarning ishlab chiqarishdagi imkoniyatlariga zo'r berildi, birinchi besh yillik rejalarining bajarilishini sun'iy jadallashtirildi, sanoatga mahalliy ayollar yanada ko'proq jalb qilindi. Musobaqalar tufayli mahalliy xotin-qizlardan milliy proletariat shakllantirishda burilish yasaldi, sanoatdagi ayollarning o'rni sezilarli darajada o'sdi. Masalan, 1932-yil 7-noyabr ma'lumotlariga ko'ra Qo'qon korxonalaridagi doimiy ishchi xotin-qizlar soni 1744 tani, mavsumiy ishchi ayollar soni 1500tani tashkil etgan, shulardan 273 tasi "sosialistik musobaqa"ga jalb qilingan. 1933-yil 1 yanvar ma'lumotiga ko'ra respublika bo'yicha sanoatdagi umumiy ishchilar sonining 28,6%ini ayol ishchilar tashkil etgan. Agar 1928-yili yirik sanoatda 2194 xotin-qiz band bo'lgan bo'lsa yoki umumiy ishchilar sonining 15,1% tashkil etgan bo'lsa, 1933-yilga kelib ularning soni 11063taga yoki 28,2%ga yetdi[18].

Ishchilar orasidan ilg'orlarni sun'iy ravishda ko'paytirish hamda belgilangan rejalarini muddatidan ilgariroq bajarish maqsadida turli slyotlar o'tkazilgan. Masalan, 1933-yil may oyida bo'lib o'tgan O'rta Osiyo "ilg'or-ishchi xotin-qizlari"ning slyotida "belgilangan reja to'rt yilda tugallangan birinchi besh yillik"ka xulosa yasab, unda xotin-qizlarning o'rniga e'tibor qaratildi; xotin-qizlarning ishlab chiqarishdagi faolligi oshganligi, sosialistik musobaqalardagi ishtiroki o'sganligi" ta'kidlandi. Slyot "ishlab chiqarishda xotin-qizlar ishtiroki bilan bog'liq yutuqlar bilan birga bu ishdagi kamchilik va xatolar"ni ham ko'rsatib o'tdi. Ya'ni bu xatolar quyidagilardan iborat edi: "xotin-qizlardan ishchi -xodimlar tayyorlashga ba'zi rahbarlarning qarshiligi, maishiy turmush tarzining pastligi, bolalar uchun yasli va bog'chalarning yetarli emasligi". Slyot qabul qilgan qarorda sanoatning barcha tarmoqlari bo'yicha xotin-qizlarning salmog'ini oshirish, mahalliy millat xotin-qizlaridan malakali ishchi-kadrlar tayyorlash va ularni ishlab chiqarishga keng jalb qilish, oliy va oliy texnik o'quv yurtlariga kirishini kuchaytirish kabi masalalar o'z ifodasini topdi. Shunday qilib, O'zbekistonning ko'pgina



shaharlarida “sotsialistik qurilishning qahramonlari”, “ilg’or” xotin-qiz ishchilarning slyotlari bo’lib o’tdi. Slyotlarda “ilg’orlar” faqat tajriba almashibgina qolmay, balki fabrika va zavodlarga joylashish uchun targ’ibot ishlarini olib bordilar. Masalan, shunday slyotdan so’ng Marg’ilon ip yigirish fabrikasiga 670 o’zbek ayoli ishga kirgan[19].

Urush yillarida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning xalq xo’jaligida hal qiluvchi ijtimoiy kuch sifatidagi rolining o’sishi davr talabiga aylanganligi bois, xotin-qizlar bo’limlari 1943 yil may oyida VKP(b) MQning qarori bilan qisqa muddatga qayta tashkil etilib, ular faoliyatida ishning yo’nalish, shakl va usullari ancha rivojlantirilib, murakkablashtirib borildi. Xususan, VKP(b) MQning 1943 yil 22 yanvardagi qaroriga muvofiq hamda 18 maydagi O’zKP(b)MQ byurosi qarori asosida Markaziy qo’mita apparatida xotin-qizlar o’rtasida ishlar bo’yicha bo’lim va bo’lim mudiri, respublika partiya qo’mitalari qoshida xotin-qizlar sovetlari tashkil etilib, ularga viloyat partiya qo’mitalarida obkom sekretarlari (viloyat kotiblari)ning o’rinbosarlari, shahar va rayon partiya qo’mitalarida xotin-qizlar ishlari bo’yicha sekretarlar rahbarlik qilgan. Butun respublikada bu sohaga mas’ul sifatida viloyat partiya qo’mitalarida 10 ta sekretar yordamchisi, shahar partiya qo’mitalarida 13, shahar tarkibidagi rayon partiya qo’mitalarida 11, qishloq rayon partiya qo’mitalarida 133 sekretar tayinlangan edi. Yangi tashkil topgan mazkur tashkilotlar zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan edi:

- xotin-qizlar o’rtasida partiyaviy-siyosiy va ommaviy-tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish;
- xotin-qizlarning front va front orqasini har tomonlama mustahkamlashga qaratilgan mehnatlarini uyushtirish;
- jangchilarning oilalariga zarur bo’lgan yordamni tashkil etishga ko’maklashish.

Bu bo’limlar kasaba uyushmalari hamda boshqa jamoat tashkilotlari orqali xotin-qizlar o’rtasida ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borgan. Bu tashkilotlar qonunan mustaqil bo’lsalarda, aslida partiyaning ko’rsatmasi asosida uning siyosatini amalga oshirgan.

Barqaror rivojlanish va siyosiy faollik (1950-1980-yillar) - ayollar uchun siyosiy va ijtimoiy faollik imkoniyatlari kengaydi, boshqaruv, partiya va ishlab chiqarish sohasida ayollar ishtiroki o’sdi. Shu bilan birga, oilaviy va ijtimoiy rollar noaniqligicha qoldi, ko’plab ayollar “ikki rol”ni, ya’ni haq to’lanmaydigan uy ishini va haq to’lanadigan ijtimoiy ishni bajarishga majbur bo’ldi. Bu esa “qarama-qarshiliklar”ni keltirib chiqardi – rasmiy tenglik bo’lsa-da, amalda ayollar kamsitilishi davom etdi.

Urushdan keyingi xalq xo’jaligini tiklash va rivojlantirish yillarida ham xotin-qizlarga nisbatan siyosat ikki yoqlama xususiyatga ega bo’lib qolaverdi: bir tomondan, davlat xotin-qizlar teng huquqliligini e’lon qilar va ularning ishlab chiqarishda hamda jamiyat hayotida ishtirokini oshirish choralari ko’rar, boshqa tomondan esa, ayollar uchun siyosiy va kasbiy kar’yera uchun imkon berilmas edi. Davlat o’rnatayotgan emansipatsiya jarayonlarining saqlanib kelayotgan patriarxal an’analar bilan chatishib ketishuvi erkaklar va ayollar tengligi faqat partiya hisobotlarida mavjud bo’lib, haqiqiy hayotda xotin-qizlar kamsitilishi ishlab chiqarish sohasida ham, xususiy sohada ham saqlanib borishiga olib keldi. Uy-ro’zg’or ishlarini bajarish zarurati bilan bir qatorda



malakasiz og'ir ishlarda bandlik ayol organizmiga haddan tashqari og'irlik tushishiga olib kelardi.

Kadrlarni g'oyaviy, mafkuraviy qaramlik, mutelik ruhida tarbiyalash kadrlar siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan. Kadrlarning ishlab chiqarish bilan bog'liq malakalari, siyosiy-axloqiy madaniyatini ko'tarishga yetarli e'tibor berilmagani holda, ularning ongiga asosan partiya g'oyalari, s'yezdlari, plenum qarorlari, siyosiy rahbariyatning avtoritar fikrlarini, ko'rsatmalari va yo'l-yo'riqlarini so'nggi darajadagi haqiqat deb e'tirof etish g'oyasi singdirilgan. Butun sovet tuzumi davrida olib borilgan kadrlar siyosati sovet davlatining shovinistik maqsadlari bilan bog'langan bo'lganligi bois, sobiq Ittifoq davrida respublika xalq xo'jaligining yetakchi tarmoqlarida mahalliy aholining salmog'i juda past bo'lib keldi. Bu esa, mustabid sovet tuzumining milliy respublikalar mahalliy xususiyatlarini, o'zbek xalqining milliy manfaatlarini inkor etuvchi shovinistik siyosatining natijasi edi.

1950 yilgacha xotin-qizlar o'rtasida ish olib borish, ularning faolligini oshiruvchi mexanizmlar yo'nalishi asosan, targ'ibot-tashviqot, tashkiliy-tarbiyaviy ishlardan iborat bo'lgan bo'lsa, 1950 yildan keyin ularni xalq xo'jaligining barcha sohalariga jalb etish, ishlab chiqarish mahsulдорligini oshirish, besh yillik rejalarni bajarish maqsadida musobaqalarni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Musobaqalar "front brigadalari", "zarbdorchilik", "sosalistik va kommunistik mehnat uchun", "sosalistik va kommunistik musobaqalar" deb nomlangani holda, ikki yoki undan ortiq ishchi, kolxozchi ayol, brigada jamoalari o'rtasida tuman va viloyatlar, hattoki respublika miqyosida amalga oshirilib, ayollarni siyosiy-ijtimoiy jihatdan tarbiyalash bilan qo'shib olib borildi. Shuning uchun ham, partiya va davlat qurilishi, jamiyat ishlarini boshqarishda ham ayollarni erkaklar bilan tenglashtirish uchun barcha chora-tadbirlar ko'rilgan. Chunonchi, 1950-yillarga kelib, O'zbekistonda ayollarning savodxonlik darajasi keskin o'sdi, ular shifokor, o'qituvchi va siyosiy sohada rahbar bo'lishdi. 1965 yilda respublikada 33121 xotin-qiz mahalliy kengashlarga, 139 ayollar O'zbekiston SSR Oliy Kengashiga deputat qilib saylangan, SSSR Oliy Kengashida Respublikaning 22 ta vakilasi bor edi. Sovetlar va partiyaviy lavozimlar, s'yezdlarga saylanadigan ayol deputatlarning ko'pchiligi ishchi va dehqonlardan iborat bo'lib, yetarli malakaga va ma'lumotga ega bo'lmagan. Ular bunday lavozimlarda bo'lgani bilan qonunlarga hech qanday o'zgartirishlar, yengilliklar kiritish salohiyatiga ega emasdilar. Ya'ni ular "til-zaboni yo'q, qiyofasiz ko'pchilikni tashkil etgan" deputatlar edi. Qayerga qancha ishchi, dehqon, xizmatchidan vakil, deputat saylash lozimligi, ularning qanchasi ayollardan bo'lishi kerakligi haqida maxsus maxfiy ko'rsatmalar ishlab chiqilgan va bu ko'rsatmalar o'sha davrda so'zsiz bajarilgan.

70-80-yillarda mustabid tizimning zo'ravonlik usullari, iqtisodiyotning qattiq markazlashgan holda rejalashtirilishi O'zbekiston sanoati rivojlanishida jiddiy ziddiyatlar kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Xalq xo'jaligini rivojlantirishda asosan, ekstensiv usullardan foydalanilishi natijasida turg'unlik holatlari yuzaga keldi. Ya'ni sanoat ishlab chiqarish rivoji, uning hajmi va mehnat unumdorligi sur'atlari pasayib, mahsulotlar sifati, boshqa eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlari yomonlashib ketdi. Agar urushdan keyingi dastlabki yillarda ya lpi sanoat mahsulotining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 10-15 %ni tashkil etgan bo'lsa, endilikda ular 5-7 % darajasiga tushib qolgan edi.



Turg'unlik ko'rinishlari ayollar hayotining barcha sohalariga ta'sir etdi. Ayol-mehnatkash, ayol-onaning manfaatlarini himoya qilishi lozim bo'lgan sovet qonunchiligi ham bunga e'tibor bermadi. Aksincha, ayollarning jismoniy imkoniyati, ijtimoiy himoyasi, maishiy turmush tarzi e'tiborga olinmagan holda, qanchalik ko'p yo'qotishlar evaziga xotin-qizlarning xalq xo'jaligidagi "faol" ishtiroki ta'minlandi. Ya'ni sovet ma'murlari xalq xo'jaligidagi turg'unlik holatini bartaraf etishda arzon ishchi kuchi bo'lgan xotin-qizlarning tashabbuskorligini oshirish, ular o'rtasida "sosialistik musobaqa"ni keng joriy qilish, "alohida tanlab olingan" ilg'or va jonkuyar ishchilarni "bayroq" sifatida "o'rnak" qilib ko'rsatish yo'llaridan foydalanib, ularni mehnat qahramonlari, Oliy Sovet deputati darajasiga ko'tarib, sanoatni turg'unlik holatidan olib chiqishga harakat qildilar. Ya'ni ularni ham moddiy, ham ma'naviy qo'llab-quvvatlagan holda o'z maqsadlariga erishishga intildilar. Bu kabi musobaqalarning o'tkazilishidan asosiy maqsad insonlarni miqdordan ko'ra ko'proq ishlatish, belgilangan rejalarni qanday bo'lmasin bajarish, ulardan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanishni kuchaytirish edi. Ularning ijtimoiy-moddiy ahvolini yaxshilash o'rniga, "Mehnat veterani", "Zavod veterani", "Zavod mukofotining laureati", "Zavodning eng yaxshi brigadasi", "Eng yaxshi konstruktor" kabi "faxriy" nomlarning berilishi bilan kifoyalangan. Biroq bu yo'l bilan O'zbekiston sanoatini turg'unlik holatidan olib chiqib bo'lmas, yangi islohotlar amalga oshirilishi zarur edi. Siyosiy rahbariyat va kommunistik mafkura buni tan olishni xohlamasdi.

Sovet davri oxiri va keyingi o'zgarishlar (1980-1991-yillar) – ayollarning huquqlari va imkoniyatlari haqida yangi munozaralar boshlandi, mintaqada sovet tizimi afzalliklari va cheklovlari qayta ko'rib chiqila boshlandi. O'rta Osiyo xotin-qizlarining o'ziga xos ijtimoiy muammolari, ularning og'ir ahvoli haqidagi masalalar faqat, asrimizning 80-yillari oxiriga kelib o'rtaga tashlandi. Chunki, 80-yillarning o'rtalaridan boshlangan "qayta qurish siyosati", "yangicha fikrlash", demokratiya hamda oshkoralik jarayonining o'sib borishi, hukmron mafkura tazyiqining bo'shashuvi natijasida milliy o'zlikni anglashning o'sishiga, tarixiy haqiqatning tiklanishiga ijtimoiy zarurat tug'ildi. "Qayta qurish"ning dastlabki yillarida ham avvalgidek, xotin-qizlarning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi rolga ijobiy baho berildi[26]. Lekin, "Hujum"ning 60 yilligiga va xotin-qizlar harakati tarixiga bag'ishlab chop etilgan R.X.Aminova, R.Ya.Rajapova, R.A.Ubaydullayeva, V.G.Chebotaryovalarning risolalarida ilk marotaba xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish muammolari, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash, maishiy turmush tarziga e'tiborni kuchaytirish kabi masalalar o'rtaga tashlandi. Ular xotin-qizlarning ko'proq og'ir sanoatda qiyin sharoitda mehnat qilayotgani, bu esa ular organizmining o'ziga xos xususiyatlariga mos kelmayotganligi, ayollar mehnatidan unumli foydalanish muammosi ishlab chiqarish masalalari bilan cheklanmasligi, malakali faoliyatni oila vazifalari bilan birga olib borish oson emasligi, xotin-qizlarning kasanachilik mehnatidan, ko'p bolali ayollarning to'la bo'lmagan ish kunidan foydalanish imkoniyatlari kabi masalalar haqida fikr-mulohaza bildirdilar. "Qayta qurish" yillarida xotin-qizlar harakatini baholashga yangicha uslubiy yondoshuvning ishlab chiqilishi zarurligi asoslab berildi. Lekin bu masalaning to'liq hal qilinishiga muvaffaq bo'linmadi. Chunki, kommunistik mafkuraning davom etib kelayotgan hukmronligi, mustabid tuzumning saqlanib turganligi bunga imkon bermadi.



Shunday bo'lsa-da, bu davrda milliy qadriyat va islom ta'sirining kuchayishi kuzatildi. Sovet Ittifoqi parchalangach esa, jamiyat hayotiga an'anaviy normalar qaytdi.

4. Xulosalar:

Umuman olganda, ayollarning emansipatsiyasi sovet davrida Markaziy Osiyoda qat'iy davlat siyosati tomonidan shakllantirildi, biroq bu jarayon an'anaviy ijtimoiy tartib va diniy qadriyatlarga qarshi turli bosqichlarda ziddiyatli tarzda kechdi. Sovet davrida xotin-qizlarga munosabat masalasining "hal etilishi" ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida ko'plab yutuqlar bilan birga murakkab muammolarni ham o'z ichiga olgan jarayon bo'ldi. Sovet hukumati tomonidan ayollarga teng huquqlar berilishi, ularning ta'lim olish, ish bilan band bo'lishi va siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan siyosatlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, ayollarga yuklangan "ikki yoqlama rol" majburiyatlari — ishlab chiqaruvchi va ona-uy bekasi sifatida teng bir vaqtda faoliyat yuritish talabi ularning ijtimoiy yukini oshirdi va gender tenglikning to'liq ta'minlanishiga to'sqinlik qildi. Muammolar sifatida patriarxal ijtimoiy qadriyatlar, ayollarning mustaqil siyosiy faolligi cheklanganligi, hamda oilaviy va jamiyat ichidagi stereotipik vazifalarining kuchayishi ta'kidlanadi. Biroq, sovet davri siyosatining yechimlari va mexanizmlari, ayniqsa ta'lim, mehnat va ijtimoiy himoya tizimlari orqali ayollarning jamiyatdagi mavqeini sezilarli darajada yaxshiladi. Ya'ni sovet qonunchiligi va siyosati ayollarga saylash va saylanish huquqini berib, gender tengligi huquqiy asosini yaratdi va ayollarning siyosiy faolligini oshirdi. Ayollar sanoat va qishloq xo'jaligiga keng jalb qilingan bo'lib, davlat tomonidan yaratilgan ijtimoiy himoya tizimlari — bolalar bog'chalari, tibbiyot xizmatlari — ularning mehnat va oilaviy majburiyatlarini muvozanatlashga yordam berdi. Shuningdek, sovet davrida xotin-qizlar kengashi kabi tashkilotlar ayollarning siyosiy savodxonligi va jamiyatdagi faolligini oshirishda muhim rol o'ynadi, ammo ko'pincha partiya nazorati ostida bo'ldi va ayollarning mustaqil faolligi cheklangan edi. An'anaviy patriarxal qadriyatlar va ijtimoiy stereotiplar mavjud bo'lib, ayollarning "ikki rol" majburiyatlari gender tenglikning to'liq amalga oshishiga to'sqinlik qildi. Sovet davri tajribasi zamonaviy gender siyosati va ayollar huquqlarini himoya qilish ishlariga ilmiy asos bo'lib, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishda tarixiy o'rganishlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Ayollarning jamiyatga integratsiyasi va tendhuqulilikni ta'minlashda bu davr tajribasi zamonaviy siyosiy va huquqiy islohotlar uchun muhim ilmiy asos hisoblanadi.

References:

1. Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1975. – 95 с.; Аминова Р.Х. "Худжум" в судьбах женщин Узбекистана. – Ташкент: Знание, 1987. – 20 с.; Аминова Р.Х. Рост творческой активности женщин Узбекистана // Общественные науки в Узбекистане. 1987.№3. – С.29-36.; Аминова Р.Х. "Хужум" Ўзбекистон хотин-қизлари тақдирида. – Тошкент: Билим, 1987. – 22 б.; Аминова Р.Х. Аграрное преобразование в Узбекистане накануне сплошной коллективизации. 1925-1929. – Ташкент: Фан, 1969. – 468 б.; Аминова Р.Х. Коллективизация в Узбекистане: как это было? Коммунист Узбекистана. 1989. №10. – С.81.; Аминова Р.Х. Коллективлаштириш – қашшоқлаштириш демак // Шарқ



юлдузи. 1992 №12. – Б.183-186.; Аминова Р.Х. Қайта қуриш шароитида Ўзбекистонда социал ривожланишнинг долзарб муаммолари. –Тошкент: Фан, 1991. – 48 б.

2. Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии: История изучения и современные проблемы (АН РУ.Институт Истории. – Ташкент: Фан, 1991. – 132с.; Алимова Д.А. Решение женского вопроса в Узбекистане (1917-1941): Краткий историографический очерк (АН РУ.Институт Истории. – Ташкент: Фан, 1987. – 69с.; Алимова Д.А. «Хужум»га зарурат бормиди? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1992 й. 11 сентябрь.

3. Алимова Д. Женский вопрос в Средней Азии... – Ташкент: Фан, 1991. – С. 90.

4. Алимова Д.А. “Хужумга зарурат бормиди?”//Ўзбекистон адабиёти ва санъати – 1992, 11 сентябрь; Алимова Д.А. Ўзбекистон ижтимоий фанларида хотин-қизлар муаммоларининг ўрганилиши ва муаммолари // Ўзбекистонда оила, давлат ва жамият қурилишида аёлларнинг роли ва гендер муаммолари. – Тошкент: Фан, 1999. – Б.16-20; Миллий тафаккур ва аёллар масаласи : ўтмиш тимсоллари // Ўзбекистон хотин-қизлари: кеча ва бугун.-Тошкент, 2005. – С.5-9.

5. Убайдуллаева Р.А. Ўзбекистон: бозор муносабатларига ўтиш шароитида аёллар ва меҳнат// Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1995, 9-сон. – Б. 24-25; Восиқова М. Ҳар бир аёл учун. – Тошкент: Адолат, 1994. – Б.3; Асадов Д.А. Планирование семьи и показатели здоровья населения// Медицинский журнал Узбекистана. 1993. №3. – Б.5-6; Содиқова М.Ш. Туғилишни режалаштиришнинг медицина жиҳатлари. – Тошкент: Абу Али Ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1997. – Б.8-10.

6. Эргашходжаева Г.Э. Французская историография о проблемах эмансипации женщин Средней Азии в 20-годы (Литература 50-80-х годов). Автореф. дисс...к.и.н. – Ташкент, 1996. – 22; Қ.В.Нишонбоева. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласини ҳал этишнинг маданий жиҳатлари. Тарих фанлари дисс. автореф. -Т.: 1998. -28с; Маткаримова Г.А. Гендерные и репродуктивные права женщин в международном и национальном праве. Автореф. дисс. д-ра юрид.наук. – Ташкент, 2002. – 41с.; Ражабова Д.Н. Проблемы молодёжи и женщин в воззрениях джадидов Туркестана (конец XIX-начало XX вв.). Автореф.дис...к.и.н. – Ташкент, 2003. – 27с; Сафаева С. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жиҳатлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 157 б.; Муравьёва Н.М. Социально-философский анализ повышения социального статуса женщин. Автореф. дисс...к.ф.н. –Ташкент, 2003. – 26с; Насруллаева Х. Ўзбекистонда хотин-қизлар ижтимоийлашуви жараёнининг фалсафий таҳлили. Ф.ф.н.... дисс. автореферати. –Тошкент, 2000. – 20с.; Жўраева Н. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётида хотин-қизларнинг ўрни (XX асрнинг 20-30 йиллари). Тар.фан.номз. дисс.автореферати. –Тошкент, 2004. – 33с.; Абдуллаева Я.А. Женский вопрос в Каракалпакстане в конце XIX-XX в.в.(социально-политический аспект): Автореферат дисс...д.ра ист. наук.-Ташкент, 2005. 46 с.; Ганиева Ғ.Ж. Ўзбекистонда хотин-қизларнинг ижтимоий, сиёсий, иқтисодий ҳаётдаги ўрни ва муаммоларини ҳал қилиш йўллари (1991-2005 йиллар). Тар.фан номз. дисс. автореферати. – Тошкент, 2005. – 29 б.; Собирова Д.Т.



Ўзбекистонда совет тоталитар тузумининг аёллар масаласидаги сиёсати ва унинг оқибатлари (XX асрнинг 40 -80- йиллари). Тар.фан номз. дисс. автореферати. – Тошкент, 2009. – 30 б.

7. Абдуллаева Я.А. Қорақалпоғистон хотин-қизлари: Кеча ва бугун. XIX асрнинг охири ва XX аср. –Тошкент: Ижод дунёси, 2004. –224б; Ўша муаллиф. Қорақалпоғистонда совет ҳокимиятининг мажбурий колхозлаштириш сиёсати ва қишлоқ аёлларининг қатағон қилиниши //Ўзбекистон тарихи. 2002. №2. – Б. 40-45; Ўша муаллиф. Мустабид совет тузumi инқирозининг айрим сабаблари ва унинг хотин-қизлар аҳволига таъсири (Қорақалпоғистон мисолида) // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2004. №1. –Б. 42-45; Ўша муаллиф. Топталган ҳуқуқ ёки мустабид тузум қатағонлари // Ҳаёт ва қонун. 2004. №2. – Б. 58-59; Ўша муаллиф. Эътиқодга ҳуруж // Тафаккур. 2004. №2. – Б. 90-92.; Собирова Д. Ўзбекистонда совет тоталитар тузумининг аёллар масаласидаги сиёсати ва унинг оқибатлари (XX асрнинг 40-80 йиллари). Тарих фан. номзод. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 173 б.; Ирисова М. Занятность женщин Узбекистана в условиях перехода к рыночным отношениям. Автореф. дисс...канд. экон.наук.–Ташкент, 1995.–С.23; Сафаева С. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жиҳатлари. Фалсафа фан. номзод. ...дисс. автореф. –Тошкент, 2002. –20б.; Бобоназарова Ж. Қишлоқ аёлларининг ишсизлигини камайтириш (Жиззах вилояти мисолида). Иқтисод фанлари номз. ...дисс. –Тошкент, 2002. – 138 б.; Ходжаева С. Правовая культура и проблемы развития социально-правовой активности женщин Республики Узбекистан. Автореф. дисс. ...канд.юрид.наук. –Тошкент, 2004. –26с.; Ахророва С. Ўзбекистонда аёллар ижтимоий фаоллигини ошириш омиллари. :фалсафа фан.номз. ... дисс. – Тошкент, 2005–103 б.; Иномова С. Эъзозли аёл иқболи: давр-жамият-шахс. – Тошкент: Ўқитувчи НМИУ, 2005. – 96б.; Султанова Э. Аёл давлатнинг ривожланиш стратегиясида (Глобал муаммо сифатида). Сиёс. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 36 б.; Ғаниева Г. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласи: янгича ёндашув, муаммолар ва ечимлар (1991-2005йй.). Тарих фан. номзод. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 26б.; Ирматова А. Ишсиз аёлларни ижтимоий ҳимоя қилишнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш (Тошкент вилояти мисолида). Иқтисод фанлари номз. ...дисс. –Тошкент, 2010. – 150 б.; Ҳусейнова А. Фуқаролик жамиятини шакллантириш жараёнида аёллар фаоллигини ошириш муаммолари (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Фалсафа фанлари докт. ... дисс. –Тошкент, 2011, –300 б.; Ғаффорова М. Ўзбекистон ижтимоий-сиёсий ҳаётида хотин-қизлар мавқеи. Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс.автореф. –Тошкент, 2018. – 44 б.

8. “Известия” gazetasi. 1925, 15.02// <https://www.ya.ru/archive/catalog/2ba605ac-e924-481e-8f02-016d57de429d/1>.

9. Jen Pickard. Women in the Soviet Union: Fight Oppression | Women's Emancipation// <https://communistusa.org/women-in-the-soviet-union/>

10. Любимова С. В первые годы. – Москва, 1958. – Б.59.

11. Jen Pickard. Women in the Soviet Union: Fight Oppression | Women's Emancipation// <https://communistusa.org/women-in-the-soviet-union/>



12. Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане. – Т.: Фан. 1975. Б.71; Абдуллаева Я.А. Қорақалпојистон хотин-қизлари... Б.69.
13. Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии... -Т.: 1991. Фан. С.62.; Абдуллаева Я.А. Қорақалпојистон хотин-қизлари...-Т.: Б.69.
14. Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии... -Т.: Фан. С.63; Ризель Ф. Достижения и недочёты в работе среди женщин // Партийное строительство.1935. №4.Б.19-24.
15. Каррыева Р. От бесправия к равенству. -Т.: 1989.С.121.
16. Любимова С. В первые годы. – М.:1958. – С.50.
17. Bu atama 1920-yillardagi Markaziy Osiyodagi sovet hukumatining modernizatsiya siyosati doirasida paydo bo'lgan. Sovetlar musulmon jamiyatlaridagi ayollarning qaram, ekspluatatsiya qilingan holatini inqilobiy g'oyalarni targ'ib qilish uchun imkoniyat sifatida ko'rgan. Ayollarni "surrogat proletariat" sifatida ko'rish, ularni an'anaviy jamiyatga qarshi kurashuvchi kuch deb hisoblab, inqilobiy harakatlarga jalb qilishga qaratilgan edi.
18. Алимова Д.А.. Решение женского вопроса в Узбекистане (1917-1941гг.). – Ташкент: Фан, 1987. – С.44.
19. Нухрат А. Октябрь и женщина Востока.- М.: Партиздат.1932. – С. 55.; Муксимова О.Д. О деятельности партийных организаций по вовлечению женщин в текстильную промышленность Уз ССР в годы пятой пятилетки // Общественные науки в Узбекистане. 1985.С.38-39; Рахимова М.Р. Экономическая эффективность использования женских кадров-специалистов в Узбекистане // Сборник научных трудов ТИНХ. Вып. 223. -Т.: 1985.С. 42-49; Аминова Р.Х. Славные дочери Родины// Общественные науки в Узбекистане. 1986.№3. С.-13-19.